| Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов .....                                                                                                              | 211 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева</b>                                                                                                                                        |     |
| Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников .....                                                                                             | 216 |
| <b>Джалилова Феруза Намазовна</b>                                                                                                                                              |     |
| Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni .....                                                                                                     | 219 |
| <b>Zuhridin Azizov</b>                                                                                                                                                         |     |
| Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиник Синсиннати, США) .....                                      | 222 |
| <b>Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.</b>                                                                                                                            |     |
| Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста .....                                                                                          | 227 |
| <b>Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова</b>                                                                                                                                        |     |
| Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar .....                                                                                                          | 231 |
| <b>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</b>                                                                                                                                             |     |
| Поэтапное вовлечение детей с расстройствами аутистического спектра в дошкольное инклюзивное образование: комплексный анализ научно-теоретических и практических подходов ..... | 234 |
| <b>Сабина Рагимова Ровшан кызы, Айсель Масимова Арастун кызы</b>                                                                                                               |     |
| Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish .....                            | 245 |
| <b>Allaniyazova Bibigul Sarsenbay qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslariga kreativ fikrlash asosida tayyorlash .....                                                                    | 248 |
| <b>Botirova Jumagul Chori qizi</b>                                                                                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish .....                                  | 254 |
| <b>Kaypova Gulnara Muratbaevna</b>                                                                                                                                             |     |
| Umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarining rivojlantirish masalalari .....                                                                              | 257 |
| <b>Davletova Hamida Xasan qizi</b>                                                                                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashning psixologik jihatlari .....                                                                             | 261 |
| <b>Fayzullayev Ermat Majidovich, Ortiqova Mashxura</b>                                                                                                                         |     |
| Orkestr va ansamblarning fan sifatidagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyati .....                                                                                                    | 265 |
| <b>Fayzullayev Ermat Majidovich</b>                                                                                                                                            |     |
| Maktab fizika darslarida interaktiv dasturlar va simulyatorlardan foydalanish metodikasi .....                                                                                 | 269 |
| <b>Xayriddinova Malikaxon Qodirxon qizi</b>                                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Musiqada midi musiqiy cholg'ularning raqamli interfeysi.....                                                                                                                       | 274 |
| <i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich</i>                                                                                                                                               |     |
| Karyera o'sishida gender tafovutlarning ahamiyati.....                                                                                                                             | 277 |
| <i>Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi</i>                                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar .....                                                                  | 283 |
| <i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich, Normuradova Nafisa Kuchkarovna</i>                                                                                                               |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida .....                                                                                     | 287 |
| <i>Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Marjona Atoyeva Ismat qizi</i>                                                                                                                    |     |
| Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi va rivojlanish xususiyatlari.....                                                                                                               | 291 |
| <i>Kayumova Nargiza Mirziyatonova, Ne'matjonova Gulzira Ne'matjon qizi</i>                                                                                                         |     |
| Jadid pedagogik tafakkurida "o'qituvchi" fenomeni.....                                                                                                                             | 294 |
| <i>Xushbokov Oybek Uralovich</i>                                                                                                                                                   |     |
| Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida savol berish malakalarini shakllantirish .....                                                                                     | 296 |
| <i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>                                                                                                                                                 |     |
| Musiqiy ta'limda xalq va zamonaviy qo'shiqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning etnomadaniy komponentlarni shakllantirish .....                                          | 298 |
| <i>Qurbanova Muslima Shavkatbek qizi</i>                                                                                                                                           |     |
| Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish metodikasi (biologiya fani misolida).....                                                        | 300 |
| <i>Akmalova Farida Dilmurod qizi</i>                                                                                                                                               |     |
| Maktabgacha ta'limda adaptiv ta'lim texnologiyalari yordamida bolalar ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish mazmuni.....                                                          | 304 |
| <i>To'xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi</i>                                                                                                                                           |     |
| Maktabgacha yoshdagi iqtidorli bolalar bilan ishlashda ta'lim texnologiyasi .....                                                                                                  | 308 |
| <i>Xudoyberdiyeva Durdona Baxodir qizi</i>                                                                                                                                         |     |
| Pedagogik-psixologik qarashlarda otaning oiladagi o'zni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish dinamikasiga oid fikrlar talqini.....                                                | 311 |
| <i>Karshiyeva Dilafuz Suyunovna, Maxamatova Munisa Mamirzo qizi</i>                                                                                                                |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari .....                                                                                       | 314 |
| <i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>                                                                                                                                            |     |
| Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda interpersonal intellekt ko'nikmalarini rivojlantirish ...                                                                    | 318 |
| <i>G'ulomova Oychehra No'monjon qizi</i>                                                                                                                                           |     |
| Etnomadaniy qadriyatlarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarga singdirishning samarali yo'llari.....                                               | 321 |
| <i>G'ulomxo'jayeva Mushtariy Elmurod qizi</i>                                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish .....                                                                                                    | 324 |
| <i>Iroda Isroilova</i>                                                                                                                                                             |     |
| Buxoro iqlimi va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish: ekologik va fizik-geografik yondashuv .....                                                                            | 329 |
| <i>Mardonova Saodat Muzaffarovna</i>                                                                                                                                               |     |
| Effective Traditional and Innovative Approaches in English Language Teaching: Evidence From EFL Classrooms .....                                                                   | 333 |
| <i>Yuldoshev Khaydarbek</i>                                                                                                                                                        |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirishda lingvopedagogik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari.....                                               | 336 |
| <i>Allayarova Sojida Umirzakovna</i>                                                                                                                                               |     |
| Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения ..... | 339 |
| <i>Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.</i>                                                                                                                                             |     |

# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LUG'AT BOYLGINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVOPEDAGOGIK YONDASHUVNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Allayarova Sojida Umirzakovna

Nordik Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
ISFT instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish masalasi lingvopedagogik yondashuv asosida tahlil qilingan. Lug'at boyligini rivojlantirish maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida qaralib, uning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida lingvopedagogik model hamda pedagogik shart-sharoitlar asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** lug'at boyligi, boshlang'ich ta'lim, lingvopedagogik yondashuv, pedagogik metodologiya, nutqiy rivojlanish.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing vocabulary among primary school students based on a linguo-pedagogical approach. Vocabulary development is considered a purposeful pedagogical process. A linguo-pedagogical model and pedagogical conditions for effective vocabulary development are substantiated.

**Key words:** vocabulary development, primary education, linguo-pedagogical approach, pedagogical methodology, speech development.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития словарного запаса учащихся начальных классов на основе лингвopedagogического подхода. Развитие словарного запаса интерпретируется как целенаправленный педагогический процесс. Обоснованы лингвopedagogическая модель и педагогические условия эффективного развития словарного запаса.

**Ключевые слова:** словарный запас, начальное образование, лингвopedagogический подход, педагогическая методология, речевое развитие.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchisining nutqiy rivojlanishi va lug'at boyligini shakllantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilishi o'quvchilarda muloqot qilish, fikrni aniq ifodalash, matn bilan mustaqil ishlash kabi ko'nikmalarni erta bosqichdan rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining nutqiy faoliyati shakllanadigan, so'z boyligi jadal o'sadigan hamda til orqali tafakkuri tizimli ravishda rivojlanadigan muhim davr hisoblanadi. Mazkur bosqichda lug'at boyligining yetarli darajada shakllanmasligi keyingi ta'lim bosqichlarida o'qish savodxonligi, yozma nutq, fanlararo muloqot va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

An'anaviy ta'lim amaliyotida lug'at boyligini oshirish asosan takrorlash, yodlash va izohlash kabi usullar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa o'quvchining faol nutqiy tajribasini, shaxsiy ma'no hosil qilish jarayonini hamda ijodiy fikrlashini to'liq ta'minlamaydi. Shu nuqtayi nazardan lug'at boyligini rivojlantirishda pedagogik metodologiyaga tayangan, maqsadli, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zarur bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish jarayoni lingvopedagogik yondashuv asosida tahlil qilinib, uning nazariy va metodologik asoslari ochib beriladi. Asosiy e'tibor lug'atni rivojlantirishni pedagogik jarayon sifatida loyihalash, ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va natijalarining o'zaro bog'liqligini asoslashga qaratilgan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot pedagogik metodologiya ustuvorligi asosida olib borildi. Lug'at boyligini rivojlantirish lingvistik jarayon emas, balki, avvalo, maqsadli pedagogik faoliyat sifatida qaraldi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Boshlang'ich sinf o'quvchisi tilni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni shaxsiy tajribasi asosida o'zlashtiruvchi subyekt sifatida qaraladi. Lug'at boyligini rivojlantirish o'quvchining individual nutqiy imkoniyatlari, qiziqishlari va faolligiga tayangan holda tashkil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv. Lug'at boyligi bilim sifatida emas, balki kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu yondashuvda so'zlarni bilish emas, balki ularni turli ta'limiy vaziyatlarda qo'llay olish asosiy ahamiyat kasb etadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv. Lug'at boyligi o'quvchining nutqiy faoliyati jarayonida, ya'ni gapirish, o'qish, yozish va muhokama qilish orqali rivojlanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida interaktiv, ijodiy va muloqotga asoslangan metodlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Lingvopedagogik yondashuv. Ushbu yondashuv tilni pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi vosita sifatida qarab, lingvistik mazmunni ta'lim maqsadlari, metodlari va natijalari bilan integratsiya qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish jarayoni tasodifiy yoki faqat til materialini ko'paytirish bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, ushbu jarayon pedagogik jihatdan loyihalashtirilgan, maqsadli va tizimli faoliyat sifatida tashkil etilgandagina yuqori samara beradi. Lingvopedagogik yondashuv asosida lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqildi va u boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishda nazariy-amaliy asos sifatida xizmat qiladi. Mazkur model o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan maqsadli, mazmunli, faoliyatli va natijaviy bloklarni qamrab oladi. Modelning maqsadli blokida ta'limning asosiy yo'nalishi sifatida o'quvchining faol nutqiy faoliyatini rivojlantirish orqali uning lug'at boyligini sifat va miqdor jihatdan oshirish belgilanadi. Ushbu maqsad kompetensiyaviy yondashuv asosida aniqlanib, o'quvchining muloqot qilish, o'z fikrini izchil va tushunarli ifodalash, turli xil matnlar bilan mustaqil ishlash qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda lug'at boyligi alohida bilim sifatida emas, balki nutqiy, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Mazmunli blok lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy materiallarning tizimli ravishda tanlanishi va tashkil etilishini o'z ichiga oladi. Unda mavzuli so'zlar tizimi, badiiy hamda ilmiy-ommabop matnlar, shuningdek, o'quvchining kundalik hayotiga yaqin bo'lgan vaziyatlarga mos nutqiy birliklar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixik rivojlanish darajasi va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich murakkablashtirilib boriladi, bu esa lug'at boyligini mexanik yodlash emas, balki ongli ravishda o'zlashtirish imkonini yaratadi. Faoliyatli blokda o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat shakllari va metodlari belgilanadi. Unda muloqotga asoslangan mashqlar, ijodiy xarakterdagi topshiriqlar, matnni tahlil qilish va qayta ishlashga qaratilgan ishlar, shuningdek, rolli o'yinlar hamda turli vaziyatli mashqlar keng qo'llaniladi. Mazkur faoliyat turlari o'quvchilarni nutqiy jarayonga faol jalb etib, so'z boyligini amaliy nutq faoliyati orqali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijaviy blokda esa o'quvchilarning lug'at boyligining rivojlanganlik darajasi aniq pedagogik ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bunda o'quvchining faol va passiv lug'at hajmi, so'zlarning ma'nolarini to'g'ri anglashi va qo'llay olishi, og'zaki hamda yozma nutqda so'z boyligidan samarali foydalanish darajasi asosiy mezon sifatida belgilanadi. Ushbu ko'rsatkichlar lug'at boyligining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham o'sishini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari lingvopedagogik yondashuv asosida yuqori samaraga erishish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligini ko'rsatdi. Jumladan, ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash, lug'at ustida ishlashni barcha o'quv fanlari mazmuniga integratsiya qilish, nutqiy faoliyatni rag'batlantiruvchi ijobiy ta'limiy muhit yaratish hamda o'qituvchining metodik tayyorgarligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu shart-sharoitlar ta'minlangan taqdirda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish jarayoni tizimli va samarali tashkil etiladi.

Olingan natijalar boshlang'ich ta'lim amaliyotida lug'at boyligini rivojlantirish masalasiga pedagogik nuqtayi nazardan yondashish zarurligini tasdiqlaydi. Agar mavjud tadqiqotlarda lug'at boyligi ko'proq lingvistik yoki psixolingvistik kategoriya sifatida tahlil qilingan bo'lsa, mazkur tadqiqotda u ta'limiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan ish faqat ona tili darslari bilan cheklanib qolmasligi, balki barcha o'quv fanlari doirasida so'z boyligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi. Lingvopedagogik yondashuv o'qituvchidan an'anaviy "tushuntiruvchi" roldan chiqib, ta'lim jarayonini loyihalovchi va tashkil etuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishni talab etadi, bu esa boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.



## XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish pedagogik jihatdan maqsadli va tizimli tashkil etilgan ta'lim jarayonini talab etadi. Lingvopedagogik yondashuv ushbu jarayonda samarali metodologik asos bo'lib, o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, so'zlarni ongli o'zlashtirish va ularni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Lug'at boyligini rivojlantirish ta'lim mazmuni, qo'llanilayotgan metodlar va kutilgan natijalarning o'zaro uyg'unligida ta'minlanib, ayniqsa, muloqotga asoslangan, faol metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy rivojlanish sur'atini jadal-lashtiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotiga izchil joriy etish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga hamda ularni keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – М.: Педагогика, 1996.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2005.
3. Леонтьев А. А. Психоллингвистика. – М.: Смысл, 2003.
4. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004.
5. Бабанский Ю. К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. – М.: Педагогика, 1982.
6. Raximov S. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
7. Safarova N. Nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: "Fan", 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.